



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISHDA BANKLAR VA MAHALLA INSTITUTLARI O‘RTASIDAGI HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Umida Abdug‘afforovna G‘aniyeva

Bank hisobi va audit kafedrası dotsenti, Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish jarayonida bank sektori va mahalla institutlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. So‘nggi yillarda yashil moliyalashtirish hajmining oshib borishi davlat siyosatining samaradorligini ko‘rsatmoqda, biroq bu jarayonda tijorat banklari va mahalla institutlarining roli yetarlicha to‘liq shakllanmagan. Tadqiqotda yashil moliyalashtirishning hozirgi holati statistik ma‘lumotlar, grafiklar va jadvallar asosida tahlil qilinadi hamda davlat banklari, tijorat banklari, yashil fondlar va davlat kafolatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritiladi. Shuningdek, mahalla institutining loyihalarni aniqlash, monitoring qilish va moliyaviy intizomni mustahkamlashdagi imkoniyatlari baholanadi. Tadqiqot natijasida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda integratsiyalashgan hamkorlik modeli taklif etilib, uning amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil moliyalashtirish, bank tizimi, mahalla instituti, davlat kafolatlari, O‘zbekiston.

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda yashil iqtisodiyot global iqtisodiy rivojlanishning asosiy paradigmasiga aylandi. OECD ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024 yilga kelib yashil moliyalashtirish hajmi jahonda 1,7 trillion AQSh dollaridan oshgan bo‘lib, uning asosiy qismi bank sektori orqali yo‘naltirilmoqda [1]. Iqlim o‘zgarishi oqibatida energiya resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish davlatlar oldida ustuvor vazifa sifatida shakllanmoqda. Jahon banki hisobotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqlimga moslashuv uchun yillik moliyaviy ehtiyoj 2030 yilga borib 300 milliard AQSh dollariga yetadi [2].

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. “2030 yilgacha Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”da energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirish va yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish asosiy

vazifalar sifatida belgilangan [3]. Markaziy bank va tijorat banklari tomonidan yashil kredit liniyalari joriy etilishi mazkur siyosatning moliyaviy tayanchi bo‘lib xizmat qilmoqda.

2026 yilning “Mahalla va qo‘shnichilik tizimini rivojlantirish yili” deb e‘lon qilinishi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Mahalla instituti aholiga yaqin bo‘lgan ijtimoiy tuzilma sifatida yashil loyihalarni aniqlash, monitoring qilish va moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Shu sababli banklar va mahalla institutlari o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda davlat banklari, tijorat banklari va mahalla institutlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot savoli: yashil iqtisodiyotga o‘tishda banklar va mahalla tizimi qanday integratsiyalashgan moliyaviy mexanizm asosida faoliyat yuritishi kerak? Ilmiy yangiligi bank sektori va mahalla institutini yagona moliyaviy hamkorlik modeli sifatida konseptual asoslashidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tajribada yashil moliyalashtirish bank tizimi orqali amalga oshiriladigan asosiy instrument sifatida qaraladi. OECD yashil moliyani “atrof-muhitga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan loyihalarga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar tizimi” deb ta‘riflaydi [1]. Jahon banki va UNDP tadqiqotlarida davlat kafolatlari va subsidiyalar yashil investitsiyalarning riskini kamaytiruvchi muhim mexanizm sifatida ko‘rsatilgan [2], [4].


Ilmiy adabiyotlarda banklarning yashil iqtisodiyotdagi roli kredit siyosati, risklarni baholash tizimi va kapital bozorlaridagi ishtiroki orqali izohlanadi [5]. Shu bilan birga, jamoatchilik institutlari (community finance) modeli ijtimoiy ishonch va axborot assimetriyasini kamaytirish orqali moliyaviy samaradorlikni oshirishi isbotlangan [6].

O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish bo‘yicha mavjud tadqiqotlar asosan davlat siyosati va bank tizimi doirasida olib borilgan bo‘lib, mahalla institutining moliyaviy mexanizmdagi roli yetarli darajada o‘rganilmagan [3], [7]. Shu sababli tadqiqotdagi asosiy bo‘shliq banklar va mahalla institutlari o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik mexanizmini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarning kamligidadir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni moliyaviy tizim orqali faol qo‘llab-quvvatlanmoqda. 2019 yilda qabul qilingan “2030 yilgacha Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” yashil moliyalashtirishni rivojlantirish uchun institutsional va huquqiy asos yaratdi [1]. Mazkur strategiyada qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Jahon banki hisobotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023 yilga kelib yashil loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan kredit va investitsiyalar hajmi 1 mlrd AQSh dollaridan oshgan bo‘lib, uning katta qismi davlat banklari orqali amalga oshirilgan [2]. Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan energetika va ekologiya sohasidagi loyihalarga imtiyozli kredit liniyalari ajratilmoqda [3].

1-rasm. O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish hajmining o‘shish dinamikasi (2021–2024 yillar, mlrd AQSh dollari)



O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2024 yilda “yashil moliya” tushunchasini bank nazorat tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, tijorat banklari yashil kredit portfelini alohida hisobga olish va ekologik risklarni baholash mexanizmlarini joriy etishi lozim [4]. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yil oxiriga kelib ayrim yirik banklarda yashil kreditlarning umumiy kredit portfelidagi ulushi 3–5 foizni tashkil etgan [5].

Shuningdek, O‘zbekistonda yashil obligatsiyalar bozori shakllana boshladi. 2023 yilda ilk bor davlat banklari tomonidan xalqaro moliya bozorida yashil obligatsiyalar chiqarilib, ularning mablag‘lari qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi loyihalariga yo‘naltirildi [6]. Bu jarayon moliyaviy bozorning diversifikatsiyasi va yashil investitsiyalarni jalb etishda muhim qadam bo‘ldi.

Biroq, yashil moliyalashtirish tizimi hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, yagona milliy “yashil loyiha” tasnifining (taxonomy) yo‘qligi, monitoring va baholash mexanizmlarining zaifligi hamda mahalla darajasida loyihalarni moliyalashtirish instrumentlarining yetarlicha rivojlanmagani asosiy cheklov omillari sifatida qayd etiladi [2], [7]. Shu sababli yashil moliyalashtirishni banklar va mahalla institutlari orqali integratsiyalashgan mexanizm asosida tashkil etish dolzarb ilmiy va amaliy vazifaga aylanmoqda.

Xulosa

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2021–2024 yillar davomida O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish hajmi barqaror va izchil o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 0,3 mlrd AQSh dollaridan 1,2 mlrd AQSh dollarigacha yetgan. Ushbu o‘shish davlatning yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha olib borayotgan strategik siyosati, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik hamda bank sektorida yashil moliyaviy instrumentlarning joriy etilishi bilan izohlanadi.

Biroq yashil moliyalashtirishning asosiy qismi hanuzgacha davlat banklari hissasiga to‘g‘ri kelayotgani, tijorat banklari va mahalla institutlarining ishtiroki yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi. Shu sababli kelgusida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda banklar, davlat kafolatlari, yashil fondlar va mahalla institutlari o‘rtasida integratsiyalashgan hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarur bo‘lib, bu jarayon yashil investitsiyalar hajmini oshirish va ularning hududiy samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. OECD, *Financing Climate Futures: Rethinking Infrastructure*, Paris, 2023.
2. World Bank, *State and Trends of Climate Finance*, Washington DC, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019.
4. UNDP, *Green Finance for Sustainable Development*, New York, 2023.
5. A. Taghizadeh-Hesary and N. Yoshino, “Sustainable solutions for green financing,” *Energy Policy*, vol. 119, pp. 154–162, 2022.
6. J. Stiglitz, *Economics of the Public Sector*, New York: Norton, 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, *Yashil moliya bo‘yicha tahliliy hisobot*, Toshkent, 2024